

## **GLOBILIZATSIYA VA TILLAR ARALASHUVI**

**Miridinova Ruxshona**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti 1-fakulteti, 3-  
bosqich talabasi

**Xakimbayeva Ozoda Kalandarovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta  
o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada globalizatsiya jarayonining til tizimiga ko'rsatadigan ta'siri va uning natijasida yuzaga keladigan til aralashuvi hodisasi tahlil qilinadi. Unda turli tillarning o'zaro aloqaga kirishishi, ayniqsa ingliz va rus tillarining boshqa tillarga, asosan o'zbek tiliga ta'siri misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, til aralashuvining asosiy shakllari – kod almashinuvi va o'zlashma so'zlar haqida tushunchalar beriladi. Maqolada ushbu jarayonning yuzaga kelish sabablari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** globalizatsiya, til aralashuvi, kod almashinuvi, o'zlashma so'zlar, ingliz tili ta'siri, rus tili ta'siri, internet va til, madaniy almashinuvi

Hozirgi davrda globalizatsiya jarayoni jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, internet va xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida turli tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchaymoqda. Bu holat tilshunoslikda muhim hodisalardan biri hisoblangan til aralashuvining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda ingliz va rus tillari ko'p so'zlashuvchilariga ega til sifatida ko'plab milliy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada kundalik nutqda chet tillariga oid so'z va iboralarning qo'llanilishi ortib bormoqda. Bu jarayon bir tomondan tilning boyishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan uning odatiy qoidalariga ta'sir etishi mumkin. Shu sababli mazkur maqolada globalizatsiya sharoitida til aralashuvi masalasi, uning yuzaga kelish sabablari hamda ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi.

Tilshunos olimlar fikricha, globalizatsiya jarayoni tillarning o'zaro yaqinlashuviga va ularning bir-biriga ta'sir ko'rsatishiga olib keladi. Xususan, David Crystal o'z tadqiqotlarida ingliz tilining global tilga aylanishi natijasida boshqa tillarda o'zlashma so'zlar soni ortib borayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu jarayon tabiiy bo'lib, til rivojining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Joshua Fishman til va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, til aralashuvi ko'p tillilik mavjud bo'lgan muhitda ayniqsa kuchli namoyon bo'lishini qayd etadi. Unga ko'ra, ijtimoiy omillar, masalan, ta'lim, migratsiya va ommaviy axborot vositalari til aralashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Rus tilshunos olimi Viktor Vinogradov til rivojida ijtimoiy va madaniy omillarning ahamiyatiga alohida urg'u bergan. Uning fikricha, til doimo jamiyat bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi va tashqi ta'sirlar, jumladan boshqa tillar bilan aloqa natijasida o'zgarib boradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, globalizatsiya sharoitida turli tillarning o'zaro aralashuvi tabiiy jarayon hisoblanadi. O'zbek tilshunoslari ham bu masalaga alohida e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, ingliz va rus tillarining ta'siri natijasida o'zbek tilida yangi terminlar paydo bo'lmoqda. Bu jarayon bir tomondan tilning boyishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan uning sof shaklini saqlash masalasini murakkab qilib qo'yimoqda.

Til aralashuvi ko'pincha ko'p tillilik mavjud bo'lgan jamiyatlarda yoki globalizatsiya sharoitida yuzaga keladi. Til aralashuvi turli shakllarda namoyon bo'lib, nutqni boyitadi, lekin ba'zida milliy tilning qoidalariga ta'sir qilishi mumkin. Til aralashuvining birinchi shakli – kod almashuvi. Bu shaklda nutq davomida bir tildan boshqasiga o'tish sodir bo'ladi. Masalan, “Bugun meeting bor, so'ngra uyga ketaman” jumllarida ingliz va o'zbek tillari aralashgan. Ikkinchi shakl – kod aralashuvi, bunda bir gap ichida turli tillarning so'zlari birlashadi. Masalan, “U Instagramda yangi post skachat qildi” yoki “Online darslar juda foydali bo'ldi, especially grammar qismlari”. Uchinchi shakl – o'zlashma so'zlar, ya'ni boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar. Masalan, ingliz tilidan “deadline”, “manager”, “feedback”, rus tilidan esa “komanda”, “status”, “filtr” kabi so'zlar kundalik nutqda ishlatiladi.

Til aralashuvi bir necha sabablar natijasida yuzaga keladi. Globalizatsiya va internet tufayli dunyo bilan tezkor aloqa osonlashdi va chet tillarining ta'siri ortdi. Ta'lim va migratsiya ham muhim omil bo'lib, maktab, universitet va ish muhitida ingliz va rus tillari faol ishlatiladi. Shu bilan birga, madaniy almashinuv – kino, musiqa va media orqali – chet tillaridagi so'zlar va iboralarni o'zlashtirishni kuchaytiradi. Yoshlar orasida inglizcha va ruscha so'zlarni ishlatish esa zamonaviylik belgisi sifatida qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya til rivojiga katta ta'sir ko'rsatuvchi muhim omildir. Til aralashuvi esa bu jarayonning tabiiy natijasidir. Biroq, tilni rivojlantirish bilan birga, uning milliy xususiyatlarini saqlab qolish ham muhimdir. Shu sababli, til aralashuvidan oqilona foydalanish va ona tiliga hurmat bilan yondashish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Usmanova S, Bekmuxamedova N, Iskandarova D. “Sotsiolingvistika: Til kontakti va aralashuvi bo'yicha o'quv qo'llanma”. Toshkent: Ilm-fan, 2018. 48-b.
2. Elova D, Safarova G. “Sotsiolingvistika: Tillararo aloqalar va code-switching”. Toshkent: Toshkent, 2021. 78-b.
3. Berdialiyev A. “O'zbek sinxron sotsiolingvistika: Til kontaktining o'zbek tiliga ta'siri”. Toshkent: Ilm-fan, 2019. 99-b.
4. Crystal D. “English as a global language”. England: Cambridge University Press 2003. 164-b
5. Fishman J. A. “Bilingualism with and without diglossia; diglossia with and without bilingualism”. Journal of social issues, 1967. 29-b.